

**Paxtachi tumani bo'yicha 2026-yil 2-mavsumda o'tkazilgan tashabbusli
byudjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan loyihalarni amalga
oshirish bo'yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi o'rinbosari**

J.Eshonkulovning

TAKLIFI

Assalomu alaykum, hurmatli Kengash raisi!

Hurmatli deputatlar va sessiya qatnashchilari!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5072-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2026-yil 2-mavsumda Paxtachi tumanida "Tashabbusli byudjet" jarayonini samarali tashkil etish, aholi tomonidan ilgari surilgan takliflarni qo'llab-quvvatlash va g'olib loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirildi.

2026-yil 2-mavsumda "Tashabbusli byudjet" jarayonini moliyalashtirish maqsadida tuman byudjet parametrlarida ko'zda tutilgan mablag'larning 5 foizi doirasida ajratilishi belgilangan mablag'larning 50 foizi, ya'ni **13 mlrd 98 mln so'm** mablag' jamg'armaga yo'naltirildi.

Shuningdek, jamg'arma mablag'larini shakllantirish maqsadida quyidagi manbalar hisobidan qo'shimcha mablag'lar yo'naltirildi:

- 2026-yil 1–2-choraklar daromadlar rejasining ortig'i bilan bajarilgan qismi hisobidan — **933,2 mln so'm**;
- yer uchastkalarini sotishdan tushgan tushumlar hisobidan — **296,7 mln so'm**;
- iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan — **333,04 mln so'm**.

Shu tariqa, yuqorida ko'rsatilgan manbalar hisobidan jami **14 mlrd 660 mln 940 ming so'm** mablag' shakllantirilib, 2026-yil 2-mavsumdagi "Tashabbusli byudjet" jarayonini moliyalashtirish uchun jamg'armaga yo'naltirildi.

Tuman fuqarolari tomonidan "Tashabbusli byudjet" jarayonining 1-bosqichida jami **103 ta taklif** ilgari surildi.

Mazkur takliflar belgilangan mezonlar asosida ishchi guruh tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijasida **23 ta taklif** belgilangan mezon talablariga mos kelmaganligi hamda takroriy takliflar mavjudligi sababli rad etildi.

Qolgan **80 ta taklif** ovoz berish jarayoniga o'tkazildi.

Ovoz berish jarayonida ushbu 80 ta taklif bo'yicha jami **68 840 ta ovoz** berildi. Eng ko'p ovoz to'plagan loyihalar belgilangan tartibda g'olib deb topildi.

Ovoz berish natijalariga ko'ra, quyidagi yo'nalishlarda loyihalar g'olib deb topildi:

- **Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish** — 1 ta loyiha, **1 mlrd 648 mln so'm**;
- **Ichki yo'llarni, shu jumladan piyodalar yo'lakchalari va yo'l o'tkazgichlarni ta'mirlash** — 5 ta loyiha, jami **8 mlrd 236 mln 530 ming so'm**;

- **Sport muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish — 1 ta loyiha, 1 mlrd 648 mln so'm;**
- **Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish — 1 ta loyiha, 1 mlrd 648 mln so'm;**
- **Musiqa va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish — 1 ta loyiha, 823 mln 820 ming so'm.**

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 29-iyundagi PQ-243-son qaroriga muvofiq, **4 ta mahallada sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar** bo'yicha loyiha qiymatining 50 foizi aholi tomonidan mobil ilovalar orqali ixtiyoriy ravishda shakllantirildi va mazkur loyihalar ham g'olib deb topildi.

Jumladan:

- **Elektr energiyasi ta'minoti bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish — 4 ta loyiha, jami 127 mln 300 ming so'm.**

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olgan holda, Paxtachi tumanida 2026-yil 2-mavsumda o'tkazilgan "Tashabbusli byudjet" jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib deb topilgan loyihalar ro'yxatini tasdiqlashni taklif etaman.

G'olib loyihalar ro'yxati Kengash tomonidan tasdiqlanganidan so'ng, har bir loyiha bo'yicha belgilangan tartibda alohida hisob raqamlar ochilib, ularni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish choralari ko'riladi.

Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi natijasida tuman aholisining ijtimoiy va maishiy muammolarini hal etish, ichki yo'llar, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va boshqa ijtimoiy obyektlar holatini yaxshilash, shuningdek, mahallalarda aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga erishiladi.

Shu munosabat bilan, yuqorida qayd etilgan g'olib loyihalarni tasdiqlash va ularni belgilangan tartibda moliyalashtirishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Hisobotim tugadi, etiborlaringiz uchun rahmat

**Paxtachi tuman Iqtisodiyot
va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari**



J.Eshonkulov

**Paxtachi tuman bo'yicha 2026-yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha
"MANZILLI RO'YXAT"**

№	G'olib taklif ma'lumotlari					Haqiqatda ajratilgan mablag'	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	taklif manzili	Qisqacha mazmuni	Balansda saqlovchi	To'plagan ovozlari soni			
	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag'					14 660 940 000,0		
1	055476893008	"Dabus qal'a"	Paxtachi tumani Dabusqal'a MFYda joylashgan 35-son umumiy o'rta ta'lim maktabining asosiy binosini mukammal ta'mirlash hamda maktab hududining 210 metr qismini himoya devori bilan o'rash ishlari amalga oshirish	Paxtachi tuman obodonlashtirish boshqarmasi	5464	1 648 000 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI "YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
2	055492860008	"Jona"	Paxtachi tumani Jona mahallasida joylashgan Mehnatobod va Shoxnigor ko'chasidagi ichki ko'chalariga asfalt qoplamasi yotqizish.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	5350	1 647 720 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
3	055501081008	"Nayman"	Paxtachi tumani Nayman Mahallasi Oriyat va Ziyo kuchalarini asfaltlashtirish ishlarini amalga oshirish	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	5704	1 647 720 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
4	055527683008	"Ukrash"	Samarqand viloyati Paxtachi tumani Ukrash mahallasidagi Bektub 1, Yangi O'zbekiston, Jasorat ko'chalarini asfalt qoplama bilan qoplash	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	5375	1 647 720 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
5	055522764008	"Shamsnazar"	Sport maktab hududidan 12x24 o'lchamdagi Kurash zal qurish (o'g'il bolalar va qiz bolalar kiyinish, yuvunish xonasi, hamshira xonasi, murabbiy xonasi) 300 l 2ta geokollektor o'rnatish	Paxtachi tumani Sport maktabi	5703	1 648 000 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI "YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
6	055506115008	"Gulobod"	Paxtachi tumani Gulobod mahallasida joylashgan Shodlik, Yakkabog' va Sayilgoh ko'chalarini asfalt qoplamasi bilan ta'minlash ishlarini amalga oshirish	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	5459	1 647 720 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
7	055506565008	"Bo'ston"	Paxtachi tumani Sog'liqni saqlash bo'limiga qarashli markaziy Shifoxonaga zamonaviy markazlashgan kislorod stansiyasi (zavod) o'rnatish. Bu og'ir ahvoldagi bemorlarni uzluksiz kislorod bilan ta'minlash va davolash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ko'p qavatli binoda bemorlar, ayniqsa og'ir ahvoldagi, nogironligi bo'lgan hamda keksalarning xavfsiz va qulay harakatlanishini ta'minlash maqsadida lift o'rnatish.	Paxtachi tumani Tibbiyot birlashmasi	4578	1 648 000 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI "YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
8	55525399008	"Istiqlof"	Paxtachi tumani Madaniyat bo'limi jixoz	Paxtachi tumani madaniyat bo'limi	4681	823 820 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	PAXTACHI TUMAN MADANIYAT BO'LIMI
9	055492247008	"Qoratepa"	Qoratepa MFYning Bog'iravon-E'tiqod ko'chasining 3 200 metr qismini asfaltlashtirish ishlarini amalga oshirish.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	5426	1 645 650 000,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
	X		Jami ajratilgan mablag'	X	47740	14 004 350 000,0	X	X
			Taqsimlanmagan mablag'			656 590 000,0		

Paxtachi tuman Iqtisodiyot va moliya bulimi boshlig'i o'rinbosari:



J.Eshonkulov

**Пахтачи тумани bo'yicha 2026-yil 2-mavsumda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha sheriklik asosida g'olib deb topilgan loyihalarning
"MANZILLI RO'YXAT"**

№	G'olib taklif ma'lumotlari					50 foizi Республика бюджетидан ажратилadigan қисми	50 foizi аҳоли томонидан ажратилadigan қисми	Жами ажратилadigan қиймати	Buyurtmachi tashkilot
	Taklif ID raqami	taklif manzili	Qisqacha mazmuni	Balansda saqllovchi	To'plagan ovozlari soni				
	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag'								
1	055528752008	"Қўшховуз"	Пахтачи тумани Фароғон кўчасида 10 донa бетон устун ўрнатиш ишларини амалга ошириш.	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi paxtachi tumani feliyali	Шериклик ПК-243	6 500 000,0	6 500 000,0	13 000 000,0	"HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI
2	055530131008	"Тўғолон"	Пахтачи тумани Тўғолон маҳалласидаги Келажак кўчасида электр таъминотини яхшилаш мақсадида 16 та темир-бетон электр узатиш устунларини ўрнатиш ҳамда 800 метр СИП кабелни тортиш ишларини амалга ошириш.	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi paxtachi tumani feliyali	Шериклик ПК-243	23 400 000,0	23 400 000,0	46 800 000,0	"HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI
3	055492374008	"Найман"	Пахтачи тумани Найман маҳалласининг Қорлик қишлоғига 1 та 160 кВА қувватга эга трансформатор подстанциясини (ТП) қуриш ва ўрнатиш ишларини амалга ошириш.	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi paxtachi tumani feliyali	Шериклик ПК-243	22 500 000,0	22 500 000,0	45 000 000,0	"HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI
4	055492438008	"Қоратепa"	Қоратепa мфй эътикод кўчасига 18 бетон устун қуриш ишларини амалга ошириш.	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi paxtachi tumani feliyali	Шериклик ПК-243	11 250 000,0	11 250 000,0	22 500 000,0	"HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI
	X		Жами	X	0	63 650 000,0	63 650 000,0	127 300 000,0	X

Пахтачи туман Iqtisodiyot va moliya bulimi boshlig'i o'rinbosari:




Ж.Эшонкулов

**Paxtachi tumani bo'yicha 2026-yil 2-mavsumda o'tkazilgan tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan
ID:55525399008 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmat)lar**

Restiri

T/r	Tovar (xizmat)lar nomi	O'lchov birligi	Bozor narxi	Soni	Summasi
1	LED projektor	Dona	2 820 000,0	1	2 820 000,0
2	Akustik kolonka	Dona	315 000 000,0	1	315 000 000,0
3	Miksher pulti	Dona	70 000 000,0	1	70 000 000,0
4	Noutbuk	Dona	20 000 000,0	1	20 000 000,0
5	LED-panellar uchun shtativ	Dona	12 000 000,0	2	24 000 000,0
6	LED panel	Dona	9 800 000,0	40	392 000 000,0
	Jami	x	x	x	823 820 000,0

**Paxtachi tuman Iqtisodiyot va moliya
bulimi boshlig'i o'rinbosari:**



J.Eshonkulov